

YASHIL IQTISODIYOT O'ZBEKISTONDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNING DRAYVERI

Raximov Eshmurod Normuradovich

PhD, dotsent.

Tel: (99) 020-64-24, e-mail: raximoveshmurod88@gmail.com

Berdivaliyeva Madina Komiljon qizi

O'qituvchi assistant.

Tel: (95) 102-36-09, e-mail: madinaberdivaliyeva@gmail.com

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11429237>

Annotatsiya. Ushbu maqolada yashil iqtisodiyotning barqaror iqtisodiy o'sishdagi roli, yashil iqtisodiyotning tamoyillari, shu bilan birga, BMTga a'zo barcha davlatlar tomonidan 2015-2030-yillarda amalga oshirilishi kun tartibiga kiritilgan barqaror rivojlanish maqsadlari dasturi 17ta global maqsadlarni va ular bilan bog'liq 169 ta vazifalarni hamda yashil iqtisodiyotning barqaror iqtisodiy o'sishdagi asosiy vazifalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, global, ekologiya, atrof-muhit, qayta tiklanadigan energiya, yashil makon.

GREEN ECONOMY IS THE DRIVER OF SUSTAINABLE ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN

Abstract. In this article is highlighted the role of the green economy in sustainable economic growth, the principles of the green economy, at the same time, the program of sustainable development goals included in the agenda of 2015-2030 implementation by all UN member states includes 17 global goals and 169 related tasks and the main tasks of the green economy in sustainable economic growth

Key words: green economy, global, Ecology, Environment, Renewable Energy, green space.

ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА – ДРАЙВЕР УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. В данной статье освещена роль зеленой экономики в устойчивом экономическом росте, принципы зеленой экономики, в то же время программа целей устойчивого развития, включенная в повестку дня реализации на 2015-2030 годы всеми государствами-членами ООН, включает 17 глобальные цели и 169 связанных с ними задач и основные задачи зеленой экономики в условиях устойчивого экономического роста.

Ключевые слова: зеленая экономика, глобальная, экология, окружающая среда, возобновляемые источники энергии, зеленое пространство.

Kirish

So'nggi paytlarda global miqyosda yashil iqtisodiyotga o'tish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Ko'p yillar davomida butun dunyo mamlakatlari barqaror iqtisodiy o'sishga erishishga intilmoqda shu bilan birga atrof-muhit buzilishining salbiy ta'sirini kamaytirishga harakat qilmoqdalar. So'nggi yillar ichida "yashil" iqtisodiyot g'oyasi nafaqat ekologiya iqtisodchilari, balki butun dunyo iqtisodchilar orasida ham keng muhokama qilinmoqda. Bu

borada turli siyosiy forumlarda, davlat rahbarlari, siyosatchi olimlar tomonidan bu masalaga ko'p bora to'xtalib kelinayotganligi "yashillashtirish" siyosatiga bo'layotgan jiddiy e'tibor hisoblanadi.


Bugungi kunda zamonaviylashgan iqtisodiyot sharoitida insoniyat ehtiyoji ham misli ko'rilmagan tarzda oshib bormoqda. Bundan kelib chiqadiki, ehtiyojlarni qondirish uchun zarur bo'lgan resurslarni olishda tabiatga "murojaat qilish" ham ko'payib bormoqda. "Yashil iqtisodiyot" mana shunday o'zgarishlar kelajak avlod hayotiga salbiy ta'sir qilishini oldini olish va ular uchun ham farovon hayot ta'minlash zaruriyatidan kelib chiqmoqda. Agarda amalga oshirilayotgan iqtisodiy munosabatlarning tabiatga salbiy ta'siri oldi olinmasa, u nafaqat kelajak avlod hayotiga, balki jamiyatning hozirgi sharoitiga ham jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi. Va aksincha, insoniyatning atrof -muhitga munosabati o'zgarsa, ularda avvalo, ekologik madaniyat rivojlansa, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va mahsulotni iste'mol qilish bilan munosabatlar "yashillashtirish" sa'y-harakatlariga moslashsa, albatta, biz va kelajak avlod hayotining ijobjiy tarafga o'zgaradi. Ya'ni "Yashil" iqtisodiyot aholi farovonligini ta'minlashdagi va iqtisodiy o'sishda kabi barqaror rivojlanishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yashil iqtisodiyot - bu tabiatga ziyon yetkazmagan holatda tabiiy resurslardan (minerallar, er, suv va toza havo biologik xilma-xillik) foydalanish, issiqxona gazlarini (GHG) kamaytirish, iqlim o'zgarishiga chidamlilikni kuchaytirish va bozor ochiqligi va texnologik yutuqlardan unumli foydalangan tarzda yangi sanoat va yangi ish o'rinalarini rag'batlantirish iqtisodiyoti hisoblanadi.

Barqaror rivojlanishga erishish vositalari hisoblangan iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik komponentlarni o'zaro muvofiqlashtirish murakkab vazifa hisoblanadi, aholining iqtisodiy bilimlarini oshirish va atrof-muhitga, tabiiy resurslarga tejamkorona munosabatda bo'lish yo'li bilan bu masalani ijobjiy hal qilish mumkin bo'ladi. Ushbu jarayonda uch konsepsiyaning o'zaro ta'sir mexanizmlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy va ijtimoiy komponentlar jamiyat oldiga bir avlod mobaynida (masalan, daromadlarni taqsimlash ya'ni YaIM ning aholi jon boshiga taqsimlash) adolatga erishish va aholining kambag'al guruhlariga maqsadli yordam ko'rsatish kabi yangi vazifalarni qo'ymoqda.

Iqtisodiy va ekologik komponentlar atrof-muhitga tashqi ta'sir qiymatini baholash (korxonalarining iqtisodiy hisobotida hisobga olinishi) zarurligi bilan bog'liq yangi g'oyalarning paydo bo'lishiga olib keldi. Ijtimoiy va ekologik komponentlar esa avlodlar ichida va o'rtasida tenglikni ta'minlash (keyingi avlod huquqlarini hurmat qilish, aholining qarorlar qabul qilish jarayonida qatnashishi) kabi masalalarning dolzarbligini oshirmoqda. BMTning Atrof-muhit dasturi, BMTTD, OECD, GGI va Yashil iqtisodiyot koalitsiyasi kabi ko'plab tashkilotlar yashil iqtisodiyot doirasida ishlar olib keldi. Yashil iqtisodiyot doirasidagi beshta tamoyilni aniqlagan. Yashil iqtisodiyotning beshta tamoyili:



1-rasm. Yashil iqtisodiyotning beshta tamoyili

1) Farovonlik. Yashil iqtisodiyot barqaror, umumiylar farovonlikni ta'minlashi, o'sish, sog'liq, baxt, ta'lif va jamiyat ko'rinishidagi inson boyligini iqtisodiy foydadan ustun qo'yishi kerak.

2) Adolat. Yashil iqtisodiyot inson huquqlarini (masalan, so'z erkinligi yoki bolalarni himoya qilish), adolatni, tenglikni, jamiyat hamjihatligini, ijtimoiy adolatni, ayniqsa kam ta'minlangan ozchiliklarni himoya qilishga ustuvor ahamiyat beradi. U barcha odamlarga, shu jumladan hali tug'ilmaganlarga ham foyda keltiradigan adolatli o'tishni maqsad qiladi.


3) Sayyora chegaralari. Yashil iqtisodiyot inson farovonligi butunlay yaxshi ishlaydigan tabiiy dunyoga bog'liqligini tan olishi kerak. Shunday qilib, yashil iqtisodiyot tabiatning maqsad va chegaralarini, shuningdek, biologik xilma-xillik, tuproq, suv, havo va boshqa ekotizim poytaxtlarini himoya qiladi.

4) Samaradorlik va etarlilik. Kam uglerodli, diversifikasiyalangan va aylanma iqtisodiyot yashil iqtisodiyotning xususiyatlari hisoblanadi. Sayyora chegaralarida boylikka erishish va iqtisodiy rag'batlarni real ijtimoiy xarajatlar bilan uyg'unlashtirish zaruriyati bizning eng dolzarb iqtisodiy vazifamiz ekanligini tan oladi.

5) Yaxshi boshqaruv. Yashil iqtisodiyotda to'g'ri boshqaruv dinamik demokratik javobgarlik, asosli fan, tegishli ko'rsatkichlar va mahalliy bilimlarni o'z ichiga olgan tashkilotlar yoki institutlarni yaratishni qo'llab-quvvatlaydi. Bundan tashqari, yaxshi boshqaruv jamiyat ishtiropi, ijtimoiy muloqot, xabardor rozilik, hisobdarlik va oshkoraliq nuqtai nazaridan fuqarolik hayotiga ustuvor ahamiyat berishi kerak.

Barqaror rivojlanish maqsadlari har bir inson uchun farovon turmush tarzini yaratishga xizmat qiluvchi iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik ko'rsatkichdir. BMTga a'zo barcha davlatlar tomonidan 2015-2030-yillarda amalga oshirilishi kun tartibiga kiritilgan. Barqaror rivojlanish maqsadlari dasturi 17ta global maqsadlarni va ular bilan bog'liq 169 ta vazifalarni o'z tarkibiga oladi (2-rasm): O'zbekiston ushbu maqsadlardan 16 tasini milliylashtirish va amalga oshirish vazifasini o'z oldiga qo'ygan. Respublika hududida dengiz havzalari mavjud bo'lmagani bois, 14-

maqsad (dengiz ekotizimlarini asrash) O‘zbekiston tomonidan milliylashtirilmagan.



2-rasm. “Barqaror rivojlanish maqsadlari dasturining 17 ta global maqsadlari”

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi PQ-4477-son qarori bilan tasdiqlangan 2019–2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish Strategiyasida iqlim o‘zgarishi oqibatlariga moslashish va ularni yumshatish, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va tabiiy ekotizimlarni asrash bo‘yicha bir qator vazifalar keltirilgan. Shuningdek, 2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarning 15-maqсади “Quruqlik ekotizimlarini himoyalash va tiklash, ulardan oqilona foydalanishga ko‘maklashish, o‘rmonlardan oqilona foydalanish, cho‘llanishga qarshi kurashish, yerlarning yemirilishini to‘xtatish va ortga qaytarish, bioxilma-xillikning yo‘qolib

ketish jarayonini to‘xtatish”dan iborat. Bu esa o‘z navbatida, hududlarning turistik-rekreatsion imkoniyatlaridan samarali foydalanish va ekoturizmni rivojlantirishshtirish bilan bog‘liq.

Yashil iqtisodiyotda bandlik va daromadning o‘sishi uglerod chiqindilari va ifloslanishni kamaytirish, energiya va resurslar samaradorligini oshirish, biologik xilma-xillik va ekotizim xizmatlarining yo‘qolishining oldini olish imkonini beruvchi iqtisodiy faoliyatga, infratuzilma va aktivlarga davlat va xususiy investitsiyalarni jalb qilish orqali amalgalashiriladi. Bugungi kunda innovatsion taraqqiyotga erishish, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, cheklangan resurslardan maksimal darajada oqilona foydalanish masalalari nafaqat milliy iqtisodiyot, balki butun jahon hamjamiyati oldida amalgalashirilishi lozim bo‘lgan muhim vazifalardan sanaladi. So‘nggi yillarda ekologiyaning buzilishi (iqlim o‘zgarishi, cho‘llashish, bio xilma-xillikning yo‘qotilishi), tabiiy kapitalning tugab borayotganligi, kambag‘allik miqyosining ortib borishi, chuchuk suv, oziq-ovqat, energiyaning yetishmasligi, odamlar va mamlakatlar o‘rtasidagi tengsizlik kabi muammolar amaldagi iqtisodiy tizimning mukammal emasligi sabablaridir. Global inqirozlarning barchasi ish o‘rinlari qisqarishi, ijtimoiy himoyasizlik va qashshoqlik kabi, ham rivojlangan, ham rivojlanayotgan mamlakatlardagi barqarorlikni izdan chiqaruvchi dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yanada chuqurlashtiradi. Dunyoning bugungi qiyofasi, tiklab bo‘lmas ekologik falokatlar va atrof muhitga yetkazilayotgan ulkan zararlar “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish zarurligini taqozo etadi. Agar e’tibor beradigan bo‘lsak, jahondagi yetakchi mamlakatlar allaqachon yashil iqtisodiyotga o‘tish ishlarini boshlab yuborganligini ko‘rishimiz mumkin.

Ular yashil iqtisodiyot barqaror rivojlanishni o‘rnini bosa olmasligini balki barqaror rivojlanishga erishishga xizmat qiluvchi yo‘l ekanligini allaqachon anglab yetishgan. Masalan: Xitoyda qayta tiklanadigan energiya Xitoy hukumati 2020 yilga borib birlamchi energiyaning 16 foizini qayta tiklanadigan manbalaridan ishlab chiqarish majburiyatini oldi. 2019 yilda mamlakat energiyaga bo‘lgan ehtiyojning qariyb 26 foizini qayta tiklanadigan manbalaridan (quyosh, shamol, bioyoqilg‘i va gidroenergetika) ishlab chiqardi. Ushbu o‘sish jarayoniga mahalliy va xorijiy yashil korxonalarga katta miqdordagi mablag‘larni kiritish orqali erishish mumkin.

Biroq, yirik sanoat ishlab chiqarishi bilan tan olingan mamlakat uchun juda qisqa vaqt ichida qayta tiklanadigan energiya manbalaridan shunchalik ko‘p elektr energiyasi ishlab chiqarish mamlakatning yashil milliy iqtisodiyot sari qadam tashlashiga misoldir; Ugandada esa, organik dehqonchilik ta’riflaydigan bo‘lsak, mamlakatda o‘g‘itlar va pessisidlardan foydalanish hukumat tomonidan konstitusiyaga zid deb e’lon qilingan; Braziliyaning Kuritiba shahri esa, yashil iqtisodiyot shahriga aylanish uchun barqaror shahar turmush darajasini joriy qilish yo‘lida birinchi qadamlarni tashladi.

Masalan, shaharda aholining avtomobilarga qaramligini kamaytirish maqsadida jamoat transporti tizimi qurildi va shu orqali tirbandlik va havoning ifloslanishi kamaytirildi. Sanoatni rivojlantirish va yangi ish o‘rinlari yaratish bo‘yicha boshqa rejalar ham bor. Kuritiba Braziliyadagi birinchi shahar bo‘lib, shahar aholisining samaradorligi, unumdonligi va sifatini oshiradigan aqlli shahar rejalahtirish yondashuvlarini qo‘llaydi. Braziliyaning boshqa shaharlarida ham kuzatilishi mumkin va shaharlarda yashil iqtisodiyotning yanada rivojlanishi kutilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida ham ko‘plab xorijiy davlatlardan “yashil iqtisodiyot” borasida tajribalar o‘rganilib, “Yashillashtirish” sohasida ko‘plab chora-tadbirlari ko‘rilishi ekosiyosat

doirasida turgan eng muhim dasturul amal masalalardan biri hisoblanadi. Xususan, mintaqamizdagi asosiy daryolarning havzasi va biologik xilma-xillikning qisqarib borayotgani jiddiy xavotir uyg'otmoqda. Bug'lanish darajasini oshiradigan gazlar va atmosferaning keng miqyosda ifloslanishi muammolarni yanada chuqurlashtirmoqda. Bugungi kunda "yashil taraqqiyot" borasidagi maqsadlarga erishish uchun mamlakatlarning harakatlari yanada faol va samarali bo'lishi kerakligiga hech kim shubha qilmayapti.

Yashil iqtisodiyot bu iqtisodiy tizim bo'lib, uning asosiy maqsadi sayyoramizning ekologiyasi va uni saqlab qolish bilan birga iqtisodiyotning barcha sohalarini rivojlantirishga qaratilgan. Shuningdek, Yashil iqtisodiyot yer yuzidagi aholi uchun farovonlik olib keladi va kambag'allik darajasini pasaytiradi. Barcha mamlakatlarda inson taraqqiyotining yuqori darjasini, xoh u ta'lim sohasi bo'lsin xoh sog'liqni saqlash bo'lsin, xullas insomning farovon hayot kechirishi uchun nimaiki zarur bo'lsa unga erishish imkoniyatini yaratishga xizmat qiladi. Yashil iqtisodiyot bio xilma-xillikni tiklashga yordam beradi, ekologiyadagi salbiy o'zgarishlarni oldini olishga va atrof – muhitni muhofaza qilishga xizmat qiladi. Iqtisodiy va ijtimoiy sohaga investitsiyalar jalb qiladi va samarali foydalanishga yo'naltiradi.

Yashil iqtisodiyotning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- atrof-muhitni muhofaza qilish: u tabiiy resurslarni tejash, ifloslanish va chiqindilar kamaytirishga qaratilgan, biologik xilma-xillikni saqlash;
- kam uglerodli va resurslarni tejaydigan texnologiyalar;
- qayta tiklanadigan energiya manbalari, energiya samaradorligi va barqaror ishlab chiqarish va iste'mol shakllari;
- yashil infratuzilma va xizmatlar: Bu ekologik tozalikni rivojlantirishga urg'u beradi;
- ijtimoiy inklyuzivlik: u yashil ish o'rinnari, ta'lim va boshqalardan adolatli foydalanishga intiladi.

Yashil iqtisodga o'tish barcha segmentlarga foya keltirishini ta'minlaydigan resurslar jamiyati. Yashil iqtisodiyot turli sohalarni, jumladan qayta tiklanadigan energiyani, barqaror qishloq xo'jaligi, ekoturizm, yashil qurilish, chiqindilar qayta ishlash tizimini boshqaruv jarayoni va toza transport. Yashil iqtisodiyotning o'sishini rag'batlantirish barqaror iqtisodiyotni rivojlantish uchun hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Yashil iqtisodiyotning iqtisodiy foydasi quyidagilar:

1. Qashshoqlik darajasining kamayishi va tengsizlikning qisqarishi;
2. Iqtisodiy o'sish va bandlik darajasining ortishi;
3. Sifatli ta'lim;
4. Yangi bozorlarga kirish imkoniyatlarining kengayishi;
5. Qishloq xo'jaligi sohasida mahsulotlarning serobligi;
6. Yashil enegiyaga erishish;
7. Raqobatbardoshlik darajasining o'sishi.

Xulosa qilib aytganda, har bir mamlakat barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga intiladi, chunki iqtisodiy o'sish:

1. milliy mahsulot hajmi va daromadning ko'payishiga;
2. resurslardan samarali foydalanishga;
3. yangi-yangi ehtiyojlar va imkoniyatlarning paydo bo'lishiga;

4. xalqaro bozorlarda mamlakat nufuzining oshishiga olib keladi va eng asosiysi aholining farovon yashashini ta'minlaydi.

Bir so'z bilan aytganda, yashil iqtisodiyot uchun barcha amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar faqat bitta maqsadga— aholi farovonligini oshirish, turmush tarzini yaxshilash va xalqimizni rozi qilishga yo'naltirilgandir.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston - 2030” strategiyasi to'g'risidagi 11.09.2023 yildagi PF-158-son farmoni
3. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. - T.: «O'zbekiston», 2023.
4. “2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 04.10.2019 yildagi PQ-4477-son.
5. “2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish” konsepsiysi.
6. Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Tashmatov Sh.A., Butaboyev M.T.. Yashil iqtisodiyot. Darslik. T.: Universitet, 2020
7. Ekologiya va yashil Iqtisodiyot, 30-mart 2023.
8. The World bank banki report, Washington, 2022.
9. Nahla Chaaben, Zied Elleuch, Basma Hamdi, Bassem Kahouli. Environment, Development and Sustainability. Received: 24 April 2022 / Accepted: 14 October 2022.
10. Omonovich, T. B. (2022). The Chinese Experience of Increasing the Competitiveness of the National Economy and the Possibilities of Effective use it in the Economy of Uzbekistan. American Journal of Economics and Business Management, 5(11), 325-331.
11. Anvar Hamdamov “Yashil iqtisodiyot”ga o'tish hayotiy zarurat, “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali. 2022.
12. B.Y. Xodiyyev, Sh. Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik. T.:” Barkamol fayz media” nashriyoti, 2020.
13. www.stat.uz
14. www.uznature.uz
15. www.egovernment.uz
16. www.lex.uz
17. www.regulation.gov.uz